

JOY NOMI BILAN BOG'LIQ TIBBIY EPONIMLAR

Nuriddinova Shaxnoza Kaxorovna

BuxDu tadqiqotchisi

E-mail: rasulizzatullayev@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10078397>

Annotatsiya: Ushbu maqolada, eponimlarning joy nomlari bilan bog'liq ma'no turlari, ularning kelib chiqish tarixi haqida fikr yuritilgan. Turli zamon va makondagi eponimlarning tasnifi, izohi keltirilgan. Joy nomi bilan bog'liq eponimlarda xalqning tarixi, madaniyati va milliy xususiyatlari aks etadi. Shu bilan birga bunday eponimlar kasallik va uning alomatlarini yaqindan o'rganish va kerakli ma'lumotlarga ega bo'lish jarayonini osonlashtiradi.

Kalit so'zlar: eponim, joy nomi bilan bog'liq tibbiy eponimlar, **“Lyme”** kasalligi, **“Bombey fenomeni”**, **“Nyukasl”** kasalligi, **“Mamburg virusi”** kasalligi, **“Minamata”** sindromi, **“Teschen”** kasalligi, **Schmallenberg sindromi**, **“Guam”** kasalligi, **“Siam egizaklari”**.

Kirish. Eponimlar o'z tarkibida tegishli obyektlar, hodisalar mualliflarini ko'rsatadigan yoki taniqli fan va madaniyat arboblari sharafiga atalgan antroponimlarni o'z ichiga oladi. Bu borada R.Trayxer o'z qarashlarida eponimlarni shaxs nomidan kelib chiqqan so'zlar ekanligi va bunda shaxs hayot yoki vafot etgan qahramon yoki fantastik xarakterga ega bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi. Bundan tashqari olim o'z fikrlariga yana bir qancha qo'shimchalar ham kiritib o'tadi. Jumladan, olim fikricha, “Ijtimoiy fanlarda ko'plab eponimga xos hodisalar odamlarning emas, balki joy nomlari bilan bog'liqdik” [1,125]. Shu sabab eponimlarning nafaqat antroponimlardan, balki toponimlardan ham kelib chiqqani keltirilgan ushbu ta'rifda o'z aksini namoyon qilyapti. Quyidagi keltirilgan misollarda buning yaqqol isbotini ko'rish mumkin:

Muhokama va natijalar. Qadim zamonlardan beri insoniyatga ma'lum bo'lgan moxov kasalligi afsonalar va qo'rquvlar tumaniga o'ralgan. Chunki, o'sha vaqtlarda bu kasallikning davosi bo'lmay, o'ta yuqumliligi bilan odamlarni dahshatga solgan. Hattoki, ayrim xalqlarda moxovga chalingan kishilar tanasi “nopok” sanalib, ular jamiyatdan butunlay chetlashtirilganlar. Uning vatani Osiyo qit'asining janubi-sharqidagi Yaponiya, Xitoy, Hindiston hisoblanib, u yerdan Afrikaning shimoliga Bobil asirlari tomonidan olib kelingan. O'z navbatida, Finikiya dengizchilari moxovni qadimgi misrliklardan yuqtirib, butun Yevropaga tarqatishgan. Yunonistonda moxovni **“Finikiya kasalligi”** deb atashgan.

“Lyme” kasalligi ko'p tizimli kasallik bo'lib, alomatlari ham turli-tuman (isitma, mushaklar og'rig'i, bosh og'rig'i, kuchli charchoq, qichishish va h.k) bo'lishi mumkin. Kasallik shomil (ucha olmaydigan, lekin o'simliklar tepasida o'tirib, hayvon yoki odam organizmiga yopishib oladigan parazit) chaqishi natijasida yuqadi. Zaharlanishdan keyin tananing zararlangan joylarida turli toshmalar paydo bo'ladi. Kasallik nomi AQSHdagi Lyme shahri nomidan olingan bo'lib, 1975-yilda kasallikning ilk alomatlari aniqlangan joy bo'lganligi uchun ham kasallikka shu nom berilgan.

Qon guruhlarining nasldan-naslga o'tishini o'rganishda hind oilalarining birida kuzatilgan holat **“Bombey fenomeni”** deb nom olgan. Oiladagi otaning qon guruhi qizining farzandida takrorlanadi. Olimlar bu holatni juda kam uchraydigan retsessiv epistatik geni bo'yicha gomozigotali deb taxmin qilishdi va bunday holat ilk bor Bombeyda kuzatilgani bois **“Bombey fenomeni”** deb nom berishdi. [2,73]

“Nyukasl” kasalligi parranda (kabutar, tovuq, qirg'ovul, kurka kabilar)larga tegishli juda yuqumli kasallik hisoblanadi. Xalq orasida **“Tovuq o'lati”** deb ham nomlanadi. Sababi, odatda,

kasallikni yuqtirib olgan parranda tirik qolmaydi. Kasallik birinchi marta Buyuk Britaniyaning Nyukasl shahrida qayt etilgan. 1970-yilga kelib kelib esa butun dunyoga tarqalgan [3,57].

“**Mamburg virusi**” kasalligi eng kam uchraydigan, ammo og’ir gemorragik isitma bo’lib, nafaqat odamlarda, balki hayvonlarda ham uchrashi kuzatiladi. Kasallikning qo’zg’atuvchisi virus bo’lib, ushbu virus, asosan, ko’rshapalaklar yashovchi hududlarda ko’p uchraydi. Mazkur virus ilk bor 1967-yilda Germaniyaning Mamburg va Frankfurt shaharlarida aniqlangan virusdan kelib chiqqan.

1956-yilda Yaponiyaning Minamata shahridagi kasalxonaga yurish va gapirishdan qiynalayotgan 10 yoshli qizcha keltirilgan. Dastlab, shifokorlar qizchaga nima bo’lganini aniqlasha olishmagan. Qisqa vaqt ichida kasallanganlar soni oshib ketgan va ular qisqa vaqt ichida vafot etishgan. Keyinchalik, ma’lum bo’lishicha, bu shaharda tarqalgan epidemiya bo’lib, u suvning simob bilan ifloslanishidan kelib chiqqan. Minamata shahri epidemiyaning boshlanish nuqtasi bo’lganligi uchun ham ushbu kasallik “**Minamata**” sindromi deb nom oldi. Cho’chqa hayvoni ko’pgina xalqlarda oila uchun go’sht manbayi sifatida boqiladi. Ammo, bu hayvonlar kasallikka moyilligi yuqori bo’lgan hayvonlar turiga kiradi. “**Teschen**” kasalligi cho’chqalarning tez tarqaladigan virusli kasalligi bo’lib, asab tizimiga ta’sir qiladi va harakatning buzilishiga, oyoq-qo’llarning noto’g’ri joylashishi va falajlarga olib keladi. Kasallik birinchi marta qayd etilgan shahar nomi bilan atalgan.

Schmallenberg sindromi – qoramollarda uchraydigan kasallik bo’lib, 2011-yildan buyon butun dunyoda keng tarqalgan. Kasallikning qo’zg’atuvchisi RNK o’z ichiga olgan virusdir. Kavsh qaytaruvchi hayvonlar ichida, asosan, sigirlar va echkilarga yuqish xavfi yuqori. Kasallik nomi u ilk bor qayd etilgan shahar nomidan kelib chiqqan bo’lib, “**Schmallenberg**” Germaniyaning shimoliy qismida joylashgan shahar nomi. Virus ilk bor shu yerdagi ferma sigirlarida aniqlangan.

“**Guam**” kasalligi noyob endemik patologiyaga asoslanadigan markaziy asab tizimi neyronlarining progressiv umumiy degeneratsiyasi tizimlari bilan bog’liq bo’ladi. Aniqlanishicha, ushbu kasallik aholi orasida ayollarga qaraganda erkaklarda ko’p uchraydi. Birinchi marta 1952-yilda Tinch okeani havzasida joylashgan Guam orolidagi aholi orasida aniqlangan. Shu vaqtdan boshlab kasallik “**Guam**” kasalligi deb nomlana boshlangan.

Siam egizaklari – Siam Taylandning eski nomlanishi. 1811-yilda Siamda tug’ilgan va sirk artistlari sifatida butun dunyoga mashhur bo’lgan Chang va Ang Burkerlar “*Siam egizaklari*” deb ataladi. Aka-uka Bunkerlar bir-birining ko’kragi bilan birlashganlar. Ular juda uzoq va muvaffaqiyatli hayot kechirishadi. Hatto, oila qurib o’zlaridan avlod qoldirishadi. Ular bir kunda, 63 yoshida insultdan vafot etishadi[4].

Spa – suv bilan bog’liq fizioterapiya usuli hisoblanadi. Ba’zan, vanna, gidroterapiya kabi tushunchalarga murojlat qilish uchun ishlatiladi. “**Spa**” so’zi shifobaxsh suvlari tufayli butun Yevropada shuhrat qozongan Belgiya kurortining *Spa* nomidan kelib chiqqan. Vaqt o’tishi bilan bu so’z “*uy*” so’ziga aylandi va protseduralar yoki tegishli hodisalarga murojaat qilish uchun ishlatila boshlandi. Ko’pincha reklamalarda ular muqobil ma’noni bildiradilar, ya’ni “*suvdagi salomatlik*” degan ma’noda ishlatiladi[5].

Xulosa. Keltirilgan misollardan ko’rinadiki, ijtimoiy hayotda qo’llaniladigan eponim so’zlar va tushunchalar tabiati, ma’no xususiyatiga ko’ra joy nomlariga ham borib taqaladi. Joy nomi bilan bog’liq eponimlarda xalqning tarixi, madaniyati va milliy xususiyatlari aks etadi. Shu bilan birga bunday eponimlar kasallik va uning alomatlarini yaqindan o’rganish va kerakli ma’lumotlarga

ega bo'lish jarayonini osonlashtiradi. Jumladan, “**Suyak minorasi**” sindromi, “**Sistine ibodatxonasi**” sindromi, “**Obuxov kasalxonasi**” simptomi kabi toponimik eponimlarni o'rganish jarayonida ushbu joy nomlari va ularning tarixi xususida ham ma'lumotlar yig'iladi. Ushbu jarayon qiziqarli bo'lishi bilan birga turli sohalar (tibbiyot, tarix, madaniyat, tilshunoslik va boshqa) dagi ilmiy qarashlarni shakllantiradi va mustahkamlaydi.

References:

1. Mailova K.L., Kuybisheva O.P. Tibbiy ingliz terminologiyasida eponimlar. Maqola. Buxoro: Медицина и образование, 2018. –B. 125
2. Xoliqov P.X., Qurbonov Q.A., Daminov O.A., Tarinova M.V. Tibbiy biologiya va genetika. – T.: Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi, 2022. –B. 73.
3. Zakirxodjayev A. Yuqumli kasalliklar. Toshkent: Cho'lpon, 2011. –B.57
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Siam_egizaklari
5. Извекова Ф .Т., Грищенко В. Е., Пуртов С .А., Эпонимы в медицинской терминологии\ Медицина и образование в Сибири. 2014. № 3.-12